

II. SANOAT



2019 yil yanvar-iyun oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3949,4 mlrd.so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 110,8 foizni tashkil etdi.

Hisobot davrida 2485,4 mlrd. so‘mlik xalq iste’mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2018 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 126,5 foizni tashkil etdi.

Jumladan, 638,3 mlrd. so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 1847,1 mlrd. so‘mlik nooziq-ovqat mollari (2018 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan mos ravishda 106,1 foiz va 135,4 foiz) ishlab chiqarildi.

Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 12,0 mlrd. so‘mlik mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi yanvar- iyun holatiga (jami sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish xajmiga nisbatan foizda)



- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish
- Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi ko‘proq qayta ishlash sanoatiga to‘g‘ri kelib, uning ulushi 94,913 foizni tashkil qildi. (2018 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 110,3 foiz). Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 0,0034 foizni (ishlab chiqarish indeksi 99,7 foiz), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash ulushi 4,4584 foizni (ishlab chiqarish indeksi 116,2 foiz), suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish ulushi 0,6253 foizni (ishlab chiqarish indeksi 113,2 foiz) tashkil qiladi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o‘sish sur’atlari (foizda)



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida o‘sish darajasi yuqori bo‘lgan Shovot tumani (2018 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 108,2 foiz), Xazorasp tumani (2018 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 141,1 foiz), Xonqa tumani (106,8 foiz), Urganch tumani (103,9 foiz), Xiva tumani (104,0 foiz), va Yangibozor tumani (106,8 foiz), Urganch shaxri (103,5 foiz), Bog‘ot tumani (102,7 foiz)ga o‘sganini va Qo‘shko‘pir tumani (86,4 foiz), Yangiariq tumani (91,4 foiz)ga past o‘sishga ega bo‘lganini ko‘rish mumkin.

2019 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi to‘g‘risida (mlrd.so‘mda)



Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha yuqori bo'lgan Xazorasp tumani, Urganch shahri, Xonqa va Shovot tumanlariga to‘g‘ri keladi.


**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini
tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdag'i sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**
(2019 yil yanvar-iyun oylari uchun)

Mahsulot turlari	2019 yil yanvar-iyun	2018 yil yanvar-iyun	O'sish sur'ati, foiz hisobida
Gidroelektrstansiyalari ishlab chikargan elektr energiyasi – mlnkVts	224,5	88,3	2,5m
Issiklik energiyasi – mingGkal.	72,1	48,7	147,9
Engil avtomobilari - dona	23044	14164	162,7
Yuk avtomobilari – dona	3749	3807	151,9
Aroq – ming litr	433	723,4	59,9
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr	12,2	10,6	115,2

<i>Mahsulot turlari</i>	<i>2019 yil yanvar-iyun</i>	<i>2018 yil yanvar-iyun</i>	<i>O'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
Tabiiy oq va qizil desert uzum vinolari – ming litr	550,0	610,0	90,2
Yumshoq bug‘doy va spelta uni – tonna	40049,1	38174,4	104,9
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar– tonna.	0,0	119,3	0,0
Birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni,og‘irligi 600 gr. (buxanka) – tonna	840,6	626,6	120,2
Milliy non (yopgan non) – tonna	361,6	71,4	5,1 m
Tozalangan o‘simlik yog‘i – tonna	9778,8	12915,6	75,7
Xo‘jalik sovuni – tonna	4144,0	5555,0	87,6
Paxta tolasi – tonna	36323,4	44576,0	81,5
Paxta chigit - tonna	57385,4	69103,0	83,0
Paxta tiviti (lint) - tonna	2915,7	3547,0	82,2

Viloyatda yirik korxonalar tomonidan faoliyat turlari bo‘yicha asosiy turdag'i mahsulot ishlab chiqarish o‘tgan yilga nisbatan aroq 59,9 foiz, paxta tolasi 81,5 foiz, paxta chigit 83,0 foiz, paxta tiviti (lint) 82,2 foizga kamayganligini kuzatildi.

Shahar va tumanlarning viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (2019 yil yanvar-iyun oylari uchun)



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo‘lgan Xazorasp tumani 45,9 foiz Urganch shahri 22,3 foiz, Xonqa tumani 6,5 foiz, Shovot tumani 4,7 foiz, Gurlan tumani 5,9 foiz va Bog‘ot tumani 4,3 foiz foizni va eng past bo‘lgan Yangibozor tumani 1,6 foiz, Xiva tumani 1,5 foiz hamda 1,3 foiz Xiva shahriga to‘g‘ri keladi.

2019 yil yanvar-iyunda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish

	<i>mldr. so‘m</i>	<i>Ishlab chiqarish indeksi, foiz hisobida</i>
--	-------------------	--

Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab	3949,4	110,8
---	---------------	--------------

Tog‘- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	0,1	99,7
--	------------	-------------

ulardan:

Tog‘- kon sanoatiga bog‘liq boshqa faoliyat	0,1	99,7
---	-----	------

Qayta ishlash sanoati	3748,5	110,3
------------------------------	---------------	--------------

undan:

Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	643,0	91,6
---	-------	------

Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	105,4	118,5
---	-------	-------

To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	828,5	113,2
---	-------	-------

Kiyim ishlab chiqarish	13,6	95,3
------------------------	------	------

Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	4,2	100,3
--	-----	-------

Yog‘och va po‘kak buyumlar, pohol va to‘qish uchun materiallardan buyumlar ishlab	2,8	98,9
---	-----	------

Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	7,7	84,9
--	-----	------

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,4	89,6
---	-----	------

Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,1	89,3
--	-----	------


Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	7,5	86,0
-------------------------------------	-----	------

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>Ishlab chiqarish indeksi, foiz hisobida</i>
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	3,6	79,8
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	28,8	85,3
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	140,4	92,5
Metallurgiya sanoati	9,0	95,5
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	68,4	97,5
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,1	94,5
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	15,2	108,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	136,5	154,6
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	1648,5	133,4
Mebel ishlab chiqarish	17,4	95,5
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	57,6	99,5
Mashina va uskunalarni ta’mirlash va o’rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	9,8	84,9
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash	176,1	116,2
Suv bilan ta’minalash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	24,7	113,2
Iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish	2485,4	126,5
<i>shu jumladan:</i>		
oziq-ovqat tovarlari	638,3	106,1
nooziq-ovqat tovarlari	1847,1	135,4


Faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish 2019 yil yanvar-iyun oylarida Tog'- kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat 99,7 foiz, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 91,6 foiz, yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlari ishlab chiqarish 98,8 foiz, Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish 84,9 foiz, Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish 85,3 foiz, mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish 97,5 foizga kamaygan.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi (jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish xajmiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-iyun




2019 yil yanvar-iyun



- Nooziq-ovqat
- Oziq-ovqat

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushi 2019 yil yanvar-iyun oylarida 30,6 foizdan 25,7 foizga kamayganligi, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish esa 69,4 foizdan 74,3 foizga ko'payganligi kuzatildi.


2019 yil yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish (mlrd.so'm)



Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, kichik biznes sub'ektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 2485,4 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2018 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 126,5 foizni tashkil etdi.

Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 62,9 foizni tashkil qildi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish o'sish sur'ati (foizda)



Shahar va tumanlar kesimida o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atini ko'radigan bo'lsak, eng yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 152,7 foiz, Yangibozor tumani 108,4 foiz, Urganch tumani 108,3 foizga o'sgan.

Shuningdek, jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ulushida 2018 yil yanvar-iyun oylarida Xazorasp tumani 38,3 foizdan 2019 yilda 45,9 foizga oshgan bo'lsa, Urganch shahri 25,2 foizdan 22,3 foizga, Xonqa tumani 7,0 foizdan 6,5 foizga va Gurlan tumani 4,9 foizdan 4,3 foizga kamaygan.

Sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi
(2019 yil yanvar-iyun oylari uchun)

	<i>Sanoat mahsulotlari, mlrd.so'mda¹⁾</i>	<i>Ishlab chiqarish indeksi, % da</i>	<i>Iste'mol tovarlari, mlrd.sumda¹⁾</i>	<i>2018 yil yanvar-iyun oyiga nisbatan, % da</i>
Viloyat bo'yicha jami	3949,4	110,8	2485,4	126,5

shaharlar:

Urganch sh.	879,0	103,5	410,8	102,2
-------------	-------	-------	-------	-------

Xiva sh.	50,2	101,6	56,4	103,2
----------	------	-------	------	-------

tumanlar:

Bog'ot	137,2	102,7	73,5	102,3
--------	-------	-------	------	-------

Gurlan	171,6	105,2	75,8	104,2
--------	-------	-------	------	-------

Qo'shko'pir	71,9	86,4	35,4	103,8
-------------	------	------	------	-------

Urganch	119,7	103,9	89,3	108,3
---------	-------	-------	------	-------

Xazorasp	1813,9	141,1	1457,3	152,7
----------	--------	-------	--------	-------

Xonqa	255,0	106,8	110,3	102,8
-------	-------	-------	-------	-------

Xiva	59,4	104,0	50,5	103,8
------	------	-------	------	-------


Shovot	234,4	108,2	50,1	76,3
--------	-------	-------	------	------

Yangiariq	92,3	91,4	52,2	104,1
-----------	------	------	------	-------

Yangibozor	64,9	106,8	23,9	108,4
------------	------	-------	------	-------

¹⁾Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda


**SHahar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, ming so'mda
(2019 yil yanvar-iyun oylari uchun)**



2019 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2145,3 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 108,9 foizni tashkil qildi. SHahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-iyun oylarida Xazorasp tumani 4206,9 ming so'mda

2019 yil yanvar-iyunida 7424,8 ming so'mga, Urganch shahri 4274,5 ming so'mdan 6185,9 ming so'mga, Xonqa tumani 1045,3 ming so'mdan 1391,8 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


**SHahar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda
(2019 yil yanvar-iyun oylari uchun)**



Aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 1350,0 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 124,3 foizni tashkil qildi. 2018 yil yanvar-iyun oylarida Xazorasp tumani 3344,6 ming so'mdan 2019 yilda 5965,0 ming so'mga, Urganch shahri 2330,8 ming so'mdan 2890,8 ming so'mga, Urganch tumani 319,2 ming so'mdan 458,7 ming so'mga, Bog'ot tumani 253,5 ming so'mdan 455,5 ming so'mga o'sgani kuzatildi.

SHahar va tumanlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da

(2019 yil yanvar-iyun va 2018 yil yanvar-iyun oylari uchun)



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznesning ulushi 2019 yil yanvar-iyun oylarida 32,0 foizni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha eng yuqori bo'lgan Xiva tumani 99,8 foiz, Xiva shahri 97,9 foiz bo'lib, eng kam Xonqa tumani 26,4 foiz, Yangibozor tumani 35,6 foiz va 4,9 foiz Xazorasp tumanlariga to'g'ri keladi.